

IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA INFLYATSIYA DARAJASI

Abdumalikov Oybek

TDIU, MMT-76 guruh talabasi

Ilmiy rahbar: dots. Umirov Abdisolom

Annotatsiya: Maqolada inflyatsiya, unga ta'sir etuvchi omillar va O'zbekiston Respublikasida inflyatsiya darajasining yillar davomida qanchalik o'zgargani bayon etilgan hamda O'zbekistonda ayni paytdagi inflyatsiya qay darajada barqarorligi va aytilayotgan bu ko'rsatkichlar mamalakat iqtisodiy holati nuqtayi nazaridan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Inflyatsiya, narxlar indeksi, bazaviy prognoz, import, Markaziy bank, targetlash, iste'mol savatchasi

Bugungi kunda iqtisodiyotning rivojlanishi va taraqqiy etishini mamlakatlar miqyosida inflyatsiya darajasini solishtirib ko'rish mumkin. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini belgilab beruvchi omillar ichida inflyatsiya ham mavjud. Muomalada haqiqiy pullar ayirboshlash vositasi vazifasini bajargan davrda iqtisodiyotda pul muomalasi avtomatik ravishda tartibga solinmasa, pulning qadrsizlanishi, baholarning o'sishi va inflyatsiya holati o'z-o'zidan kuzatiladi. Avvalambor, inflyatsiya darajasi deganda, biz ko'proq iqtisodiyotda narxlarning o'sish sur'atlarini umumiy bir holda tushunamiz. Ya'ni tanlab olingan mahsulotlar, xizmatlar narxlari yil davomida umumiy hisobda qanchalik o'sgani tushuniladi.

Rivojlangan mamlakatlarda optimal pul-kredit siyosatini yuritish markaziy bankning ajralmas funksiyasidir. Pul-kredit siyosati orqali moliyaviy munosabatlarni tartibga solish vositalari orqali markaziy bank iqtisodiyotning hozirgi holatiga ta'sir ko'rsatadi, iqtisodiyotning keyingi rivojlanishi uchun sharoit yaratadi. Markaziy bank tomonidan tanlangan to'g'ri siyosat umumiy barqaror iqtisodiy o'sishga, ishsizlik va inflyatsiya darajasini pasaytirishga va milliy valyuta barqarorligini ta'minlashga xizmat ko'rsatadi. Shu bilan birga, pul-kredit siyosatini yuritishdagi xatolar iqtisodiy va moliyaviy inqirozlarni keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun markaziy bank uchun pul-kredit siyosatining maqsadlari va vositalarini to'g'ri belgilash juda muhimdir.

Inflyatsiya - lotincha "inflatio" so'zidan olingan bo'lib, "shishish", "bo'rtish", "ko'tarilish" degan ma'nolarni anglatib, mamlakatdagi tovar va xizmatlar bahosi umumiy darajasining oshishi tushuniladi. [1] Narxlarning umumiy darajasi ko'tarilishi natijasida mamlakat pul birligi ya'ni milliy valyuta xarid qobiliyatining pasayishi ro'y beradi. Bu esa o'z navbatida, davlat pul birligining qadrsizlanishiga olib keladi. Xo'sh

pulning qadrsizlanishi deganda nima tushuniladi? Pulning qadrsizlanishi deganda, bir xil miqdordagi pulga vaqti kelib kamroq bo'lgan tovar va xizmatlarni sotib olish, ya'ni sotib olinishi mumkin bo'lgan tovar va xizmatlar miqdorining vaqti kelib kamayishi tushuniladi. Misol uchun, yilning boshida 100 ming so'mga sotib olish mumkin bo'lgan kundalik iste'moldagi tovar va xizmatlarning miqdori yilning oxiriga kelib kamayadi. Bu esa 100 ming so'mga yilning oxirida yilning boshidagiga nisbatan xuddi o'sha tovar va xizmatlarni kamroq miqdorda sotib olish demakdir. Inflyatsiyaning asosiy ko'rsatkichi bo'lib iste'mol narxlari indeksining ma'lum bir davrdagi o'zgarishi hisoblanadi [2].

Iste'mol narxlari indeksi – uy-xo'jaliklari talabidan kelib chiqib, ma'lum bir tovar va xizmatlar umumiy narxlarining o'rtacha o'zgarish darajasini aks ettiradi. Ushbu umumiy ko'rsatkich iste'mol savatidagi har bir tovar va xizmat uchun narxlarning o'zgarishini inobatga olgan holda hisoblanadi.[3] Uzoq vaqt mobaynida tovar va xizmatlar narxlari barqaror bo'lgan, rivojlangan mamlakatlarda inflyatsiyaning o'rta muddatli ko'rsatkichi 2 foiz atrofida, ushbu ko'rsatkich rivojlanayotgan va bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan davlatlar uchun esa nisbatan yuqoriroq, taxminan 2-6 foiz atrofida bo'lishi maqbul deb topilgan. Bugungi kunda har qanday darajadagi inflyatsiya salbiy jihatga ega degan fikr ommada mavjud bo'lib, aslini olganda inflyatsiyaning har qanday darajasi ham iqtisodiyot uchun zararli emas. Iqtisodiy o'sish uchun kam foizli barqaror inflyatsiya bu tabiiy jarayon. Past darajadagi inflyatsiya iqtisodiyotda qo'shimcha talab yaratishi orqali iqtisodiy o'sishga turtki beradi. Inflyatsiyaning umuman yo'q bo'lishi esa iqtisodiyotning o'sish sur'atini pasaytirib yuborishi mumkin. Shiddatli inflyatsiya kelgusida yuqori inflyatsiyaga olib kelib, iqtisodiyotni izdan chiqarishi mumkin.


Shu nuqtai nazardan past darajadagi barqaror inflyatsiya ijobiy hisoblanadi. Inflyatsiyani kelib chiqishiga ko'ra ikki toifaga ajratish mumkin: talab inflyatsiyasi, taklif inflyatsiyasi. Inflyatsiyaning bu turi talabning keskin oshishi natijasida iqtisodiyotda pul taklifining oshishiga yoki xaridorlar tomonidan inflyatsion kutilmalarni shakllanishiga olib keladi. Soddaroq qilib aytganda, ishlab chiqarish sohasi aholining talabini to'la qondira olmaydi, taklifga nisbatan talab oshib ketadi. Natijada tovar va xizmatlar narxlari o'sadi. Inflyatsiyaning bu turi ishlab chiqarish xarajatlarining keskin oshishi natijasida sodir bo'ladi. Ya'ni, har xil jarayonlar va tarkibiy o'zgarishlar (soliqlar o'zgarishi, energiya resurslari narxlari oshishi, davlat tomonidan tartibga solinadigan narxlar oshirilishi va boshqalar) tufayli mehnat unumdorligining pasayishi natijasida mahsulot ishlab chiqarishga ketgan xarajatlar oshadi. Natijada ishlab chiqariladigan tovar va xizmatlarning narxlari oshadi va import qilinadigan tovarlar avtomatik ravishda qimmatlashadi.

Bu ham inflyatsiyaning o'sishiga olib keladi va o'z-o'zidan yuqori inflyatsiya mamlakat iqtisodiyotiga xavfli ta'sir ko'rsatadi. Yuqori inflyatsiya iqtisodiyot, biznes

va moliyaviy bozorlar va albatta, mamlakat aholisi uchun juda salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Odamlar moliyaviy depressiyaga tusha boshlaydi. Shuning uchun ular puldan tezda xalos bo'lishni, uni imkon qadar tezroq sarflashni, qimmatbaho tovarlar, ko'chmas mulkka sarmoya kiritadilar va chet el valyutasini sotib olishga shoshiladilar. Bu esa tovarlarning narxlari oshishiga olib keladi. Odatda, yuqori inflyatsiyani tezlashishi yoki paslashishini oldindan prognoz qilish qiyin. Shuningdek, inflyatsiya, ayniqsa, aholining doimiy daromadga ega bo'lmagan qatlamiga jiddiy va salbiy ta'sir ko'rsatadi. Chunki, aholining boy qatlami to'plangan daromadi, tadbirkorlik faoliyati, depozitlar bo'yicha foizlar olishi yoki moliyaviy bozorga sarmoya kiritishi orqali o'zlarini inflyatsiyadan to'liq yoki qisman himoya qilish usullariga ega bo'ladi. Shuning uchun xalqaro ekspertlar inflyatsiyani kambag'allarga nisbatan qo'shimcha soliq, deb hisoblaydi. Bu „soliq“ dan qutulish uchun narxlarni ma'lum darajada belgilash yoki ularni muzlatib qo'yish choralarini ham ko'rib chiqsak. Narxlarni ma'lum darajada belgilash – yaxshi qaror. Ammo, iqtisodiyotga bunday sun'iy aralashuv talab va taklif o'rtasidagi nomutanosiblikning kuchayishiga olib keladi.

Muzlatilgan narxlarda tanqislik yuzaga keladi. Bundan tashqari, tovarlar sifati tobora yomonlashib boraveradi, muqobil va yuqoridan ko'rsatib o'tilgan noqulay narxlarni ushlab turish uchun ishlab chiqaruvchilar sifatni qurbon qiladilar. Aynan shu sabablarga ko'ra bozor iqtisodiyoti sharoitida narxlarni davlat emas, balki bozor belgilashi kerak.


O'zbekistonda Respublikasida inflyatsiya darajasini solishtiradigan bo'lsak, 2023-yil yakuniga ko'ra O'zbekiston inflyatsiya darajasi 8,77 foizni tashkil etdi. Bu O'zbekiston uchun tarixiy voqea sanaladi. Birinchidan, bu ko'rsatkich 2016-yildan beri ilk bor o'n foizdan pastladi. [4]



1-rasm. O'zbekiston Respublikasining o'tgan 5 yil ichidagi inflyatsiya darajasi, % da

Ikkinchidan, 2023-yil Markaziy bank mamalakatdagi inflyatsiya darajasini nazorat qila boshlaganidan keyingi birinchi yil bo`ldi. Regulyator o`z maqsadiga erishdi va inflyatsiyani 10 foizlik darajadan pastda ushlab turishning uddasidan chiqishdi.

Inflyatsiya mamlakat taraqqiyotining eng muhim ko`rsatkichlaridan biridir-u qancha past bo`lsa, shuncha yaxshi. Masalan, Shveysariya kabi rivojlangan mamlakatlarda yillik inflyatsiya darajasi 1,5 foizdan oshmaydi, Venesuela kabi inqirozga botgan davlatlarda esa 500 foizdan oshib ketgan. O`zbekiston 2021-yil boshidan inflyatsion targetlash tizimiga o`tdi. Bu tizimda Markaziy bank inflyatsiya bo`yicha maqsad (target) qo`yadi va unga erishish uchun barcha imkoniyatlar ishga solinadi. 2021-yil uchun mo`ljallangan maqsad o`n foiz bo`lsa, 2023-yilga kelib, bu ko`rsatkichni besh foizga yetkazish rejalashtirilgan. [6] Ma`lumot uchun, besh foizli inflyatsiya bu Kanada va Buyuk Britaniya kabi davlatlar darajasiga teng ko`rsatkichdir. Targetlash doirasida narx barqarorligi moliyaviy barqarorlikni ta`minlaydi, chunki mamlakatdagi ahvol hamma uchun oydinlashadi va oldindab aytish mumkin bo`ladi. Masalan, investorlar, tadbirkorlar va boshqalar qaror qabul qilishiga izchilroq yondashadi. Bu, o`z navbatida, butun moliya tizimining barqarorlashuviga olib keladi hamda Markaziy bank ishtiroki darajasini pasaytiradi. O`zbekistonda inflyatsiya darajasi rekord darajada tushib ketgan bir vaqtda dunyoning ko`plab mamlakatlarida bu, aksincha, keskin tezlashib ketdi. Masalan, Qo`shma Shtatlarda u 40 yil oldin, Rossiyada esa besh yil oldin rekord darajaga yetgan. Markaziy bank rahbari Mamarizo Nurmatovning ta`kidlashicha, valyuta tushumi eksport hisobiga 35 foiz oshishi, shuningdek, banklar va eksportchilar tomonidan valyuta ayirboshlash hajmining ortishi natijasida nisbatan barqaror kursga erishishning uddasidan chiqilgan. Iqtisodiyotda davlat ishtirokining yuqori ulushi, xomashyo eksportiga kuchli bog`liqlik va tarkibiy nomutanosiblik kabi hodisalar, ayniqsa, islohotlar davrida mahsulot va xizmatlar narxining o`shishini sezilarli darajada tezlashtirib yuborishi mumkin. Inflyatsion targetlash shu narsaga yo`l qo`ymaslikka qaratilgan. Inflyatsiya darajasining pastligi narx-navo barqarorligini bildiradi, bu esa, o`z navbatida, aholining turmush darajasiga ham, uning mehnat faoliyatiga ham ijobiy ta`sir ko`rsatadi. Bu omillar oxir-oqibat aholining milliy valyutaga bo`lgan ishonchini oshirishi, iqtisodiyotdagi dollarlashuv darajasini pasaytirishi, ichki va tashqi investitsiya hajmining oshishiga olib kelishi ko`zda tutilgan.



Umuman olganda, 8,76 foiz (2023-yilgi inflyatsiya darajasi) ekanligi aytilayotgan bu ko'rsatkichni mamlakat iqtisodiy holati nuqtayi nazaridan yaxshi, deya olamizmi? Agar e'tabor berilsa, 8,77 foiz inflyatsiya shakllangani bilan uning tarkibidagi oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining yillik o'sishi 9,7 (besh yil ichida minimum) foizni tashkil etadi: yil davomida guruch 38,7 foizga, mol va qo'y go'shti 9,3 foizga, sut 13,3 foizga, tuxum 11,7 foizga, shakar 11 foizga qimmatlagan. Xuddi shuningdek, noziq-ovqat mahsulotlarining yillik o'sishi 7,7 foiz, xizmatlarniki 8,7 foizga o'sgan. Masalan: mehmonxona xizmatlari 17,8 foizga, dam olish markazlari xizmatlari 26,3 foizga o'sgan. [7]

Buni tarkibiy jihatdan tahlil qiladigan bo'lsak, aynan oziq-ovqat guruhidagi tovarlarimizning narxlari biroz yuqori darajada o'sishini ko'rsatmoqda. Bu yil bazaviy prognoz bo'yicha, asosiy ssenariyga ko'ra, inflyatsiya darajasi 5 foizdan kam bo'lishi kutilmoqda. Bugungi kunda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha strategiya ishlab chiqilishi, undan tashqari, hukumat darajasida ko'rilayotgan choralar oziq-ovqat mahsulotlari narxining ham kulgisida pasayishiga imkon beradi. Bugungi kunda umumiy iste'mol savatchasida oziq-ovqat mahsulotlari guruhi bor. Asosan yog'mahsulotlarini oladigan bo'lsak, ular maksimal o'sgan taqdirda ham, inflyatsiyaga umumiy ta'siri kichik summalarda ko'rinadi. Sababi iste'mol tarkibida boshqa yana 510 ta tovar ham bor. [8] Shu nuqtayi nazardan agar xatarlar yuzaga keladigan bo'lsa, avvalambor instrumentlar orqali chora ko'rilishi, undan tashqari, prognozni ozroq yuqori tomonga ko'rib chiqilishi ham mumkin. Ya'ni bugungi kunda berayotgan 8-9 foizni yuqori chegarasigacha ko'rilishi joyiz.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, hozirgi kunda jahon moliya tashkilotlari, xalqaro valyuta fondi iqtisodiy o'sishning inklyuzivligiga juda katta e'tibor qaratishyapti. Umumiy olganda, iqtisodiy o'sish nominal ko'rsatkichlarda

bo`lishi ham mumkin. Masalan, yiliga 5-6-7-8 foiz. Lekin u iqtisodiy o`shish odamlar hayotida aks etmasa yoki aholi daromadlarining o`shishiga, xarid qobiliyatini saqlab qolishga va turmush farovonligini oshirishga xizmat qilmasa, faqat raqamlardan iborat bo`lib qoladi. Shu nuqtayi nazardan inklyuziv iqtisodiy o`shishni ta`minlash hozirgi kundagi asosiy maqsad bo`lib qoladi. Ya`ni iqtisodiy o`shish bilan birgalikda aholi turmush darajasi, daromadlari va xarid qobiliyati ham oshib borishi kerak. Chunki, yuqorida ta`kidlanganidek, mana shu ko`rsatkichlarga eng katta ta`sir qiluvchi omil inflyatsiyadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Omonov.A.A Qoraliyev.M.T Pul va banklar . Toshkent 2019.
2. <https://gazeta.uz/uz/>
3. <https://kun.uz/uz/>
4. <https://cbu.uz/uz/>
5. <https://gazeta.uz/uz/>
6. <https://lex.uz/uz/>
7. Rahimova N. J. Investitsiyalarni jalb qilishda qulay investitsiya muhitining ahamiyati //RESEARCH AND EDUCATION. – 2022. – T. 1. – №. 3. – С. 229-239.
8. Malikov T.S., Vahobov D.R. Moliya: chizmalarda. O`quv qo`llanma – T.: Iqtisod-moliya, 2012 .
9. Malikov T.S. Moliya: xo`jalik yurituvchi sub`ektlar moliyasi. O`quv qo`llanma. – T.: Iqtisod-moliya, 2010.
10. Malikov TS. Moliya. O`quv qo`llanma. Toshkent: Iqtisod-moliya. 2018.
11. Malikov TS, Moliya HN. umumdavlat moliyasi./O`quv qo`llanma. Toshkent:“Iqtisod-moliya. 2009;556.